



## TIL STRUKTURASIGA INNOVATSIYALAR KIRIB KELISHI TABIATI VA UNGA IJTIMOIY OMILLARNING TA’SIRI

*Kuldashev Akram Maxmudovich*

*O‘zDJTU professori v.b.*

*Filologiya fanlari doktori (DSc)*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqola german tillari tarixining ayrim dolzarb masalalari va ularga berilgan yechimlarning hozirgi german tillari strukturasida kuzatilishida haqida gap boradi. Katta e’tibor german tillari tarixida sodir bo’lgan undoshlarning birinchi va ikkinchi ko‘chishi, rotatsizm, undoshlarning cho‘zilishi, so‘z urg‘usining ko‘chishi kabi jarayonlarning hozirgi german tillarida qoldirgan izlari va bu jarayonlarning keyingi taqdiriga qaratiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *til taraqqiyoti, lug‘at tarkibining boyishi, so‘z o‘zlashtirish, til kontaktlari, ijtimoiy omillar, innovatsiyalar, german tillari, fonetik hodisalar, undoshlarning ko‘chishi, til me’yorlari, rotatsizm.*

Tillarga innovatsiyalarning kirib kelishida o‘ziga xos holatlar kuzatiladi. Masalan ularda uzlusizlik buziladi, natijada bir xudduda kuzatilgan innovatsiya qo‘shni xudduda kuzatilmaydi va undan keyingi xudduda yana paydo bo‘ladi. Undoshlarning ikkinchi ko‘chishining geografik tarqalishida bu narsa ayniqsa yaqqol ko‘rinadi. Ma’lumki undoshlar ikkinchi ko‘chishining vatani bo‘lib Germaniyaning janubi-sharqi xizmat qiladi. P va pp ning pf ga aylanishi/ko‘chishi g‘arbiy o‘rta nemis tiliga etib bormaydi. (*pfund*<*pund*; *apfel*<*apple*). Reynda t-undoshi odatda ko‘chishga jalb etiladi, lekin faqat dat>das, wat>was, it>es so‘zlarida xolos. Bu ham faqat Mayntsdan tashqari xududlarda kuzatiladi, ya’ni Xunsryukning shimolida umuman ko‘chmagan, birlamchi shakllar kuzatiladi. Trirdan shimolgacha ketgan xududlarda ya’ni Ar daryosining shimolida ham l va r dan keyin p o‘zgarmasdan qolgan. Dorf-dorp, helfen-helpe. Va nihoyat Kyolnning narigi tomonida, ya’ni Dyusseldorfdan shimolda yotgan xududlarda ayrim istesno holatlarni hisobga olmaganda umuman ikkinchi ko‘chish kuzatilmaydi. *Machen-maken*. Shunday qilib Germaniyaning g‘arbida biz lingvistik uzlusizlikning buzilishi va innovatsiyalarning bosqichma-bosqich qabul qilinganligini kuzatamiz. [1, 97-113; 3, 47-63]

Shimolga borgan sari ikkinchi ko‘chishni boshidan kechirmagan shakllarning ko‘payib borishini kuzatamiz. Mahalliy shakl innovatsiya tomonidan siqib chiqarilgan ayrim hududlarda eski shakllarning saqlab qoliganligi kuzatiladi. Bular relikt so‘zlar yoki shakllar deb yuritiladi. Masalan Berlinda ik va wat (ich va was) shakllarini uchratish mumkin. Bu narsa Berlin shevasining faqat oxirgi yuz yillikdagina o‘z quiyi nemis shevasi ekanligini unutdi va barcha sohada yuqori nemis shakllarini asosiy shakllar sifatida qabul qildi. Mozelda dat(das), wat(was), it(es) reliktlari katta xudduda ishlataladi. Mozel-Frank xududida undoshlarning ikkinchi ko‘chishi janubdan boshlanib xalqlarning buyuk ko‘chishidan keyin sodir bo‘lgan edi. t-li ko‘chmagan shakllar faqat yuqorida sanab o‘tilgan so‘zlarda kuzatiladi xolos.

Bu kabi reliktlar ikki hudud chegaralari kesishgan joylarda ko‘proq saqlanib qolgan bo‘ladi. Masalan Kyoln shevasini Trir shevasidan ajratadigan oraliq xududda



avvallari G‘arbiy Germaniyada keng tarqalgan shakllar saqlanib qolgan. Masalan eski i o‘rniga o ishlatiladi. *Mit>mot, kind>kond, mist>most* va hk.

Ba’zi xududlarda mahalliy jut hamda adabiy tildagi gut teng ishlatiladi. Natijada Junge so‘zi Gunge tarzida talaffuz qilina boshladi. [5, 51-81]

Eramizning 800 yiliga yaqin bir davrda franklarning Yevropa shimolida, alemanlarning esa janubda farqlanishi ro‘y berdi. Aemann va bavariyaliklarda undoshlarning ikkinchi ko‘chishi T.Fringsning fikricha boshqa xalqlar ta’sirida ro‘y bergen. [5, 42-69]

“Yuqori nemis undoshlari harakati oxir-oqibat Germaniya janubidagi asl aholisi bo‘lgan keyingi german va eski german bo‘lmagan konsonantizm o‘rtasidagi uyg‘unlikning mahsulidir”. Bu fikrni rivojlantirsak janubiy Germanyaning birlamchi, dastlabki aholisi keltlar bo‘lishi ham mumkin yoki qadimgi greklar yoki bo‘lmasa Hind-Yevropa oilasiga tegishli bo‘lmagan xalqlar bo‘lishi mumkin. Bizningcha quyidagi mulohazalar bu fikrning noto‘g‘ri ekanligi xaqida xabar beradi.

1) greklar markaziy Yevropani tark etib Peloponnes yarim oroliga tomon migratsiya qilgan payt juda qadimda, yani e.a uchinchi ming yillikning o‘rtalari edi.

2) Keltlar bu xududlarda yashagan payt nisbatan yaqin davrda sodir bo‘lgan bo‘lsa-da ularning germanlar yashagan xududlardagi miqdoriy proportsiyasi germanlar foydasiga bo‘lib german tillarini qabul qiluvchi sobiq kelt aholining soni ko‘p sonli germanlar ichida sezilarli darajada bo‘lmasdi.

Ko‘rinib turibdiki janubiy german qabilalari tilida undoshlar ikkinchi ko‘chishning sodir bo‘lishiga sabab bo‘lgan grek, roman, kelt qabilalari yoki bo‘lmasa balto-slavyan qabilalari bo‘lmay qadimgi turkiy tillari, aniqrog‘i qadimgi xunn va bulg‘or tilida so‘zlashuvchi xalqlar bo‘lishi mumkin. Bunga sabab qilib ulardagi o‘xshash undoshlar va bunday tovushlar bilan sodir bo‘ladigan fonetik jarayonlar, turkiy tillarda so‘zlashuvchi xalqlar bilan german tillarida so‘zlashuvchi xalqlar artikulyatsiya organlari psixofiziologiyasi va motorikasining turlichaligi va tegishli fonologik oppozitsiyalarning mavjudligi bilan izoxlash mumkin. [4, 36-48]

1. Xalqlarning buyuk ko‘chishidan keyingi Yevropaning lingvistik kartasi rang barangligi, parchalanganligi va turli shevalarni o‘z ichiga olgan tillardan iborat bo‘lganligi bilan xarakterlanadi.

2. Qadimdan katta funksional ishlatilish ko‘lamiga ega bo‘lgan Lotin tili cherkov tili va ilm - fan tili bo‘lib qolganligiga qaramay jonli til sifatida yo‘qoldi va bir qancha hosila tillarga parchalandi.

3. Xalqlarning buyuk ko‘chishining boshlarida katta mavqega ega bo‘lgan ayrim katta qabila tillari yo‘q bo‘lib ketdi.

4. Bir qancha german tillari Markaziy Yevropa xududidan uzoqlashib ketdi va Yevropa, Afrika va Osiyoda turli “til orollarini” yuzaga keltirdi.

5. Turkiy tillar german, roman va slavyan tillari lug‘at boyligi, fonetik strukturasi va ayrim holatlarda grammatik strukturada ham ta’sir qoldirdi.

6. Yevropa siyosiy-ma’muriy jihatdan turli mayda feodal davlatlarga bo‘linib ketganligi uchun german, roman va boshqa tillar taraqqiyotining asosiy tendentsiyasi-differentsiatsiya bo‘lib, dialektlardagi lingvistik farqlar davlat chegaralari ichida siyosiy jihatdan mustahkamlab qo‘yildi.



7. Siyosiy izolyatsiya dialektlar taraqqiyotining gurkirab o’sishiga olib keldi va umumsheva shakllarini paydo bo‘lishi va rivojlanishiga zamin yaratdi.

O‘rta asrlardagi Yevropada til vaziyati xaqida gapirganimizda A.V.Desnitskayaning quyidagi so‘zlarini e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak deb o‘ylaymiz: “O‘rta asr davlatlari turlicha bo‘lgan. Ilk o‘rta asrlarda, feudal munosabatlar endigina vujudga kelgan, ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi past bo‘lgan, qishloq va shahar bir-biridan unchalik farq qilmagan va o‘ziga xos dehqonchilik hukmron bo‘lgan, vahshiy davlatlar vujudga kelgan yoki keyinchalik ularni tarixchilar “gotika” imperiyalari” deb atagan. “lattalardan yasalgan”, mos kelmaydigan, noqulay va erta tug‘ilgan, ammo bu juda muhim tarixiy rol o‘ynagan.”. [2, 23-29]

Bu gotik imperiyalar o‘z etnik qabilaviy va lingvistik jihatdan juda qurama bo‘lib, bu turli elementlardan iborat bo‘lgan tarkibni faqat harbiy jihatdan birga bo‘lish, tashqi dushmanlarga qarshi tura olish ehtiyoji birlashtirib turar edi. Bunday holatda “qirol”, “xon”, “imperator” yoki boshqa nomdagagi liderning o‘limi davlatini osonlikcha parchalanib ketishiga olib kelardi. (Atilla, Karl V, Chingizzon, Amir Temur yoki boshqa imperatorlarning o‘limidan keyingi holatni eslang). [6, 58-72]

Milliy tillarning rivojlanishi qabila va mayda etnik guruh va birlashmalarning yiriklashuvi va zaruriy iqtisodiy-siyosiy shart-sharoitlarning etilishini taqozo etadi.

Feodalizmda asosiy rolni feodal erlari, pomestelar, qal'a va monastrylar o‘ynagan, cherkovlar xam jamiyat xayotida, tilning xayotida katta rol o‘ynagan. Odadta bu erlar aholisi bir xil, bir tilda so‘zlashuvchi xalq bo‘lgan va etnik umumiylilik va lingvistik umumiylilik absolyut darajada edi. Farq esa aholining kasb-kori, shug‘ullanadigan narsasi va turmush tarzining turliligi asosida kelib chiqqan sinfiy-tabaqaviy rang-baranglikda edi.

Feodalizmda iqtisodiy hayotning asosini natural xo‘jalik, tovar ayirboshlash va mahalliy miqyosdagi savdo-sotiq tashkil qildi.

Bu kontaktlarning salmog‘i davlatlar miqyosida juda katta bo‘lganligi uchun tillar taqdiriga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Rivojlangan hududlar dialektlari sekin-asta milliy til statusi tomon ilgarilab bordi.

Mana shu murakkab jarayonga Yevropadan xalqlarning buyuk ko‘chishi katta poydevor yaratib ketganligi tufayli german tillari umum Hind-Yevropa holati va proto german holatida uchramagan turli sifat va xossalarni o‘zida jo etdi, bu yangi xossa yoki innovatsiyalar german tillarining IX-X asrga kelib o‘z yozma nutq normalarini shakllantirishga imkon yaratdi. XII-XIII asrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat esa endi avvalgi IX-X asrlardagi holatdan butunlay farq qilar edi. Jamiyatning barcha a’zolari tomonidan birlik va o‘zaro bir-birini tushunishni talab qiladigan yangi milliy madaniyat o‘rta asrdagi ikki tillilik va mayda dialektlarga boy va o‘lik adabiy tilga ega bo‘lgan til vaziyatini qabul qila olmas edi. Til vaziyati jamiyat taraqqiyotiga to‘siq bo‘la boshlagan edi. Chunki adabiy til o‘lik til bo‘lmay jonli o‘zgaruvchan va shu taraqqiy eta olish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak edi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

- Гухман М.М., Жирмунский В.М. Сравнительная грамматика германских языков. – М.: Изд. АН, 1962, Т. 1. – 204 с.



2. Десницкая А.В. Вопросы изучения родства индоевропейских языков. – М.-Л.: Наука, 1955. – 332 с.
3. Жирмунский В.М. Введение в сравнительно-историческое изучение германских языков. М.-Л.: Наука, 1964. – 316 с.
4. Макаев Э.А. Общая теория сравнительного языкознания. М.: Наука, 1977. – 205 с.
5. Фрингс Т. Немецкое языкознание и немецкая диалектология. // в кн. Немецкая диалектология. - М.: Изд. Иностранный литературы. 2005. – С. 42-69, С. 51-81.
6. Qo‘ldashev A.M.Tilshunoslikda tarixiylik tamoyili. Monografiya. Toshkent, 2020. - 296 b.